



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - sentabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

78 753



Mas'uliyati cheklangan
jamiyatlar

3 566



Oilaviy korxonalar

496



Unitar korxonalar

13 075



Xususiy korxonalar

227



Aksiyadorlik jamiyatlari


415



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar - avgust oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar - avgust oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,9 %** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,0 %** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




12,0 % foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




12,8 % foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,4 % foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **12,2 %** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **1,2 %** foizga pasaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,5%** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




12,5 % foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




13,2 % foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,3 % martaga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **12,3 %** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



2020- y.
2021- y.




10,8 % foizga oshdi






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021 - yilning 1 - sentabr holatiga ko'ra 3,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 11,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 11,6% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 - yilning yanvar - avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 290 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 320 taga yoki 1,8 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021 yil 1 - sentabr holatiga ko'ra 8 ming tani tashkil etib, ulardan 7,7 mingtasi yoki 96,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1,1 mingtaga yoki 117,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 - yilning yanvar - avgust oylarida 1027 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar - avgust oylarida, birlikda)



Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1403	716	687
Qozog'iston Respublikasi	748	301	447
Ozarbayjon Respublikasi	164	53	111
Ukraina Respublikasi	122	62	60
Qirg'iz Respublikasi	122	46	76
Tojikiston Respublikasi	92	36	59
Turkmaniston Respublikasi	59	20	39
Belarus Respublikasi	65	30	35
Armaniston Respublikasi	26	17	9
Moldova Respublikasi	18	6	13

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 18,0 %, Qozog'iston Respublikasi 9,6 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,14 %, Qirg'iz Respublikasi 1,4 % va Tojikiston Respublikalari 1,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	7 787	3 070	4 717
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	252	84	168
Bektemir	170	96	74
Yunusobod	972	401	571
Mirzo Ulug'bek	1 012	408	604
Mirobod	1 335	416	919
Shayxontohur	537	248	289
Olmazor	413	214	199
Sirg'ali	264	129	135
Yakkasaroy	1 268	440	828
Yashnobod	609	269	340
Yangihayot	96	46	50
Chilonzor	859	319	540

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 335 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 268 ta (16,2 %) hamda Yunusobod tumanlarida 972 tani (12,5 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 252 ta (3,2 %), Bektemir 170 ta (2,2 %) hamda Yangihayot 96 tani (1,2 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni





2021 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,0 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,2 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,0 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (7,9 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil yanvar - avgust oylarida, birlikda)

2021 yil yanvar - avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,8 %), Yunusobod – (12,0 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Olmazor – (10,0 %), Shayxontohur – (9,6 %), Uchtepa – (8,7 %), Yashnobod – (8,8 %), Mirobod – (8,0 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (5,8 %), Bektemir – (2,0 %) hamda Yangihayot tumanlarida (3,0 %) tashkil etgan.







2021 - yilning yanvar - avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (12,1 %), Sirg'ali – (11,2 %), Yunusobod – (12,0%), Mirzo Ulug'bek – (10,6 %), Uchtepa – (9,4 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (8,0 %), Yangihayot – (8,4 %), Chilonzor – (6,4 %), Yakkasaroy – (5,5 %), Mirobod – (4,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021 - yilning yanvar - avgust oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31